

ARAB ARUZI VA UNING FORS, TURKIY ADBIYOTGA KIRIB KELISHI

*Hamdamova Maxsuma**FDU adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti, o'qituvchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada aruz vazni, arab aruzi, uning turk va fors adabiyotga ta'siri haqida so'z boradi. Aruz vaznida ijod qilgan olimlar, ularning adabiy meroslaridan na'munalar berilgan. Aruz vaznining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: aruz, fors adabiyoti, arab adabiyoti, g'azallar, Navoiy

Аннотация. данная статья – об ритму аруз обсуждаетсяего влияниена турецкую и персидскую литературу Приведены , примеры литературного наследия ученых создавших в арузу ритму. Объясняетсязначение ритма аруз.

Ключевые слова: аруз, персидскую литературу, арабский литературу, газели, Хаваи

Abstract. it's said about aruz aruz of Arabic, effects of Turkish and Persian literature .The scientestis which create in aruz gives examples, from their literary properties. Importance or significant of aruz is illuminated.

Key words: aruz, Persian literaturea, Arabic literature, ghazala,Navai

Aruz vaznini xususiyatlarini so'zlashdan oldin bu atamaning lug'aviy ma'nosiga o'tamiz. Aruz (arabcha – arz qilmoq) – she'riy o'lchov, vazn kabi ma'nolarni anglatadi. Aruz turkiy adabiyotda VII asrlardan islom dininig kirib kelishi bilan paydo bo'lgan. Aruz so'zining lug'aviy ma'nosi "chodirni ushlab turuvchi o'rtasiga qo'yilgan yog'och", lekin atama sifatida kelib chiqishi aruz vazni ilmi asoschisi Xalil ibn Ahmad yashagan voha nomi bilan atalgan. "Aruz ilmi VIII asrda shakllangan bo'lib, arab adibi Xalil ibn Ahmad uning asoschisidir. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, mazkur vazn turkiy adabiyotlar, jumladan, o'zbek she'riyatida taxminan IX asrdan beri qo'llanib keladi. Movarounnahrda aruzshunoslar ro'yxatining boshida Abu Nasr Forobiy turadi. Abu Rayhon Beruniy ham aruz bilan tanish bo'lgan. Bu haqda u o'zining mashhur "Hindiston" asarida yozadi: "Hindlar kitoblarining rajaz vazni kabi vaznlar bilan o'lchanganligini aytib o'tdik. Ko'proq kitoblari... shlo'ka deb ataladigan vaznda bo'ladi".¹ Demak aruz vazni dastlab, arab adabiyotida paydo bo'lgan va keng ko'lamda qo'llanilgan.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda faqat bitta vazn – aruz vazni qo'llangan. Adabiyotimizda aruzning bu qadar uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi va rivojlanishi sabablarini A.Rustamov quyidagicha izohlaydi: "... Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili fonetik xususiyatlari hijo vaznidan ham, aruz vaznidan ham foydalanish uchun mosdir. Hatto aruzdan turkiy tillarda unlilarning cho'ziq-qisqaligi ma'noga ta'sir qilmaganligi sababli arab nazmiga nisbatan turkiy nazmda qulayroq foydalaniladi. Shuni ham aytish kerakki, qadimgi turk she'rlaridayoq

¹ Ibrohimov.A "Jahon adabiyoti" jurnali, 2005 yil, 2-son

vaznda bo'g'inlarning ochiq-yopiqligiga rioya qilish hollari uchrab turadi.² Aruz vazni misralardagi hijolarning qisqa va cho'ziqligiga asoslanganligi ham shundandir.

Navoiy hazratlari shunday adabiyotimizning dur-u gavhari bo'lmish aruz vaznining "sharif" ilm ekanligini ta'kidlaydilar. Zero sharif ya'ni "ulug'" va "sharafli" hali ham, kam bo'lsada davom etayotgan vaznligi Navoiy fikrining isbotidir.

Xalil ibn Ahmad Farahidiy-ul-Azdiy-yul Basriy (715/719-786) Basra shahrida Abu Amr ibn A'la va Iso Saqafiydan ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Olimning "Ayn kitobi", "Aruz bilimi qomusi" Markaziy Osiyoda yashagan va arab tilida yaratgan asarlari bilan keyinchalik islom olamining buyuk allomalari sifatida tan olingan Abu Nasr Farobiyning "Kitob - ush she'r", Abu Rayxon Beruniyning "Hindiston", Abu Ali ibn Sino, "Mahorij-ul huruf. Hikmati aruz", Mahmud Zamahshariyning "Qustos-ul aruz", Yusuf Sakkokiyning "Miftoh-ul ulum", asarlari tarkibida ham she'riy vazn muammolari, arab, yunon, hind metrikasidagi umumiy va xususiy jihatlar qayd etilgan.

Aruz nazariyasi turkiy xalqlarga, xususan, o'zbek she'riyatiga arablardan o'tgan. Adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyev arablarda vazn tushunchasi johiliya davrida ham mavjud bo'lgan, hatto bahr deb atalgan vazn turlari mavjudligi manbalarda qayd etilgan. Biroq arab xalq she'ri va johiliya davri shoirlari ijod namunalari ham, saodat asri va hulafoi roshidinlar davri nazm namunalari izchil ilmiy tizimga solgan, uning qat'iy ko'rinishlariga qonuniy tus bergan, aruzshunoslikni fan sifatida shakllantirgan olim Xalil ibn Ahmad hisoblanadi. Buni Alisher Navoiy ham "Me'zonul-avzon" asarida "Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voze'dir" deb ta'kidlab o'tgan³. Yuqoridagi fikrlar aruzning judaham mumtozligi ta'kidlangan va uning Navoiy tomonidan ham asoschisi Xalil ibn Ahmadligi ta'kidlab o'tgan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiyning yozishicha, "har kimning she'r ta'bi mustahkam tortib, uning so'zlari ba fikri ravonlashgach, she'r ilmini o'rganishga aruz o'qishga kirishadi". Xuddi shu kabi islomiy fan va madaniyatning yuksak davri abbosiylar halifasining yetuk filolog olimi Xalil ibn Ahmad Farahidiy – ul Azdiy- yul Basriy (715/719-786) Basra shahrida Abu Amr ibn A'la va Iso Saqafiydan ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Olimning "Ayn kitobi", "Aruz bilimi qomusi" kabi asarlar bitgani arab filologiyasining mavjud ilmlar bilan mashg'ul bo'lgani va ko'plab ilmlar bilan mashg'ul bo'lgani aytiladi. Biroq bu asarlarning birortasi bizgacha to'laligicha yetib kelmagan.

Arab aruzshunoslarining asosiy xizmati shundaki, asrlar davomida ilmiy tizimga solinmagan badaviy (sahroyi) she'rlar qat'iy intizom asosida tarbiyalandi. She'rdagi ritmik birliklar sifatida hijo, rukn, va bayt olindi.

² Ibrohimov.A "Jahon adabiyoti" jurnali, 2005 yil, 2-son

³ Аlisher Навоий.Мезону-л-авзон. Асарлар.Ён беш томлик. Т. 14. – Т.: Фан, 1967 . – Б.137.

Baytdagi runlar soni va rukndagi hijolar sifati asosida aruzning xususiyatlari belgilandi va bular asosida dastlab 11, so'ngra 16 bahr ishlab chiqildi.

Markaziy Osiyoda yashagan va arab tilida yaratgan asarlari bilan keyinchalik islom olamining buyuk allomalari sifatida tan olingan Abu Nasr Farobiyning "Kitob - ush she'r", Abu Rayxon Beruniyning "Hindiston", Abu Ali ibn Sino, "Mahorijul-huruf. Hikmati aruz", Mahmud Zamahshariyning "Qustos-ul aruz", Yusuf Sakkokiyning "Miftoh-ul ulum", asarlari tarkibida ham she'riy vazn muammolari, arab, yunon, hind metrikasidagi umumiy va xususiy jihatlar qayd etilgan.

Arab aruzi nafaqat arab tilli mamlakatlarda, balki Turonzaminda izchil suratda o'rganilgan. Aruz vazni haqida arab tilida qator tadqiqotlar yaratilgani buning dalilidir.

Farobiyning "Kitob - ush she'r" asarida she'rning ma'no jihati bilan uning vazn jihati she'rning asosi bo'lishi kerakligini uqtiradi. "She'riy so'zlar ma'lum vaznga tushirilib, she'riy bo'laklarga bo'linsagina aytilgan so'zlar she'r bo'la oladi. Qadimgi shoirlar nazdida she'r tuzilishi va uning javhar- asosi ana shulardan iborat bo'lgan. She'r biror narsaga taqlid qilingan so'zlardan topishi kerak. She'r ma'lum bo'laklarga bo'linib, bu bo'laklar(oldinma-ketin) bab-baravar o'qiladigan bo'lishi lozim. ...Bunday qonun qoidalarga rioya qilishning eng kichigi vazn masalasidir"⁴. Farobiy ham arz vaznining muayyan vaznga solinsagina she'r bo'lishini ta'kidlaganlar. Demak, aruz vaznining birinchi muhim shartlaridan biri- muayyan vaznga solinishidir

Fors aruzshunosligi, asosan, arab aruzshunosligi zamirida shakllangan bo'sa ham, uning taraqqiyoti nafaqat mumtoz fors she'rining balki fors aruziylarining kashfiyotlari bilan bog'liq. U borada Abdurauf Fitrat shunday deydi: "Eronlar arablardan nima olg'an bo'lsa, aynan olmadi, o'zgartirib, unga o'z xususiyatlarini ta'qib oldi yoki olib taqdi ... Shunday qilib ayrim bir forsi(y) aruz maydong'a qo'yuldi"⁵. Abdurauf Fitrat yuqorida fors aruzi haqida fikrlar keltirar ekan bu vaznning forslar tomonidan aynan ko'chirilmaganini, balki o'z xususiyatlarini ya'ni o'z qarashlarini ham qo'shgan holda olganlari haqida ma'lumot berdi.

Fors aruzining bunday bir tizimli holga kelishida Shamsiddin Qays Roziyning "Al-Mo'jam fi ma'oyir ash'or-ul ajam" ("A'jam she'rlari me'yorlari jamlangani"), Nosiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or", ("She'rlar me'yori"), Shams Faxriyning "Me'yor-ul nusрати", "Me'yor-ul jamoli", Vohid Tabriziyning "Ja'mi muxtasar", Yusuf Aziziyning "Aruz", kabin asarlari bevosita o'z xissasini qo'shgan.

Abdurahmon Jomiyning "Risolayi aruz" asarida aruz haqida shunday deydi: "She'r jinlari va vaznlarini bilish uchun bu fanning ahamiyati katta va u haqiqiy she'rni nohaqiqiydan ajratishda yaxshi me'yor hisoblanadi"⁶. Ya'ni

⁴ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.: Abdulla Qodiriy nomiдаги халк мероси нашриёти, 1993

⁵ Фитрат. Аруз ҳақида (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев). Т.: Ўқитувчи 1997. - Б.25-26

⁶ Шамси Қайси Розий. Ал -Мўъжам.- Душанбе: Адиб, 1991.- Б.33

Abdurahmon Jomiy ham aruz fanining ahamiyati beqiyosligini aytmoqda. Shunday qilib, aruz vaznini xolisona baholaydigan bo'lsak, fors aruzi faqat XX asrgacha taraqqiyotda bo'lib, undan keyingi davrlarda uning o'rganilishi to'xtab qolmagan. Mumtoz fors aruzi ilmi XX asrda ...B. Sirus, M. Sharipov, N. Mirzaxo'jayev kabi tojik olimlari, Sh. Shomuammedov, A.Rustamov, G. To'ychiyeva singari o'zbek olimlari o'z ulushlarini qo'shdilar. Sayfi Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" singari asarlari o'z xizmatini qildi.

Turk aruzshunosligi haqida gapiradigan bo'lsak, uni rivojida o'z xissasini qo'shgan Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zokirjon Furqat, Abdurauf Fitrat kabi millat fidoyilari ter to'kdilar. Natijada "Funun-ul balog'a", "Mezon-ul avzon", "Muxtasar", "Aruz haqida" kabi fundamental tadqiqotlar yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абу Наср Фаробий.Фозил одамлар шахри.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1993
2. Алишер Навоий.Мезону-л-авзон. Асарлар.Ён беш томлик. Т. 14. – Т.: Фан, 1967 . – Б.137
3. Ibrohimov.A "Jahon adabiyoti" jurnali, 2005 yil, 2-son
4. Фитрат.Аруз хақида (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Х.Болтабоев).Т.: Ўқитувчи 1997.- Б.25-26
- 5 Шамси Қайси Розий. Ал –Мўъжам.- Душанбе: Адиб,1991.- Б.33
- 6 Internet manbalari:
- 7 www.ziyo.uz
- 8 www.aruz.uz
- 9 www.adib.uz